

Informatika Fanini O'Qitish Jarayonida Mobil Texnologiyalardan Foydalanish

Yuldasheva Gulbahor Ibragimovna¹, Komilova Zulxumor Xokimovna²

Anatatsiya: Mazkur maqolada informatika fanini o'qitish jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim sohasini axborotlashtirish masalalari hamda yangi axborot va pedagogik texnologiyalar vositalarini ta'lim jarayonida qo'llashning mohiyati, nazariy jihatlari, qo'llaniladigan simulyator vositalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mobil texnologiya, internet, kompyuter, multimedia, telefon, innovatsiya.

KIRISH

Hozirda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni kundan-kunga yuksalib bormoqda. Inson hayotining deyarli barcha jabhalarini mobil texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot bilan ishlash, tarqatish, tasarruf qilish va uzatish ko'nikmalari zamonaviy shaxsning kompyuter savodxonlik darajasini va axboriy madaniyatini belgilab bermoqda.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu ta'lim muassasalarining ilm-fanni talab qiladigan bazasini rivojlantirish, o'quvchilarga ta'lim beruvchi o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularni eng yangi o'qitish tizimlariga moslashtirish bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Informatikaning asosiy tushunchalaridan biri – bu axborot kommunikatsiya texnologiyasidir. Texnologiya grek tilidan (techne) tarjima qilganda san'at, maxorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir.

Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlarmajmuasidir.

Mobil o'qitish – bu mobil texnologiyalarni qo'llagan holda, yakka, guruhli va jamoali ta'lim olishning dars va darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini o'z ichiga birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim olishning maxsus shakli. Ta'lim jarayonida "Mobil o'qitish" iborasi quyidagicha talqin etilishi mumkin [1]:

- Ta'lim olishdagi qurilma (ixtiyoriy mobil qurilmalar va tarmoq texnologiyalar);
- O'rgatuvchi (o'qitish jarayonida qurilma o'quv auditoriyasida yoki auditoriyadan tashqarida joylashgan bo'lishi mumkin);
- Dars turiga qarab o'quv jarayoniga qo'llash (boshqa maktab, shahar yoki regiondan bo'lgan Internetdagi virtual-o'qituvchi).
- Mobil o'qitishni ommaviy tarzda o'quv jarayoniga tadbqiqetish uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik talablarga e'tibor qaratish lozim:
- Ta'lim amaliyotida planshet, netbuk va noutbuklar asosida mobil sinflartashkil etish;
- BOYD (Bring your own device–shaxsiy qurilmangni olib kel) yo'li asosida ta'lim olish (ta'lim oluvchilar mashg'ulotga shaxsiy mobil qurilmasini olib keladi).

Ta'lim muassasasida Internetga ulanishga erkin ruxsat berish nafaqat auditoriya xonalarida, balki yo'laklarda, kutubxonada, faollar zalida maxsus hududlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mobil ta'limning afzallik tomonlari quyidagicha:

1. Ta'lim oluvchilarga joyni erkin o'zgartirish imkoniyatini beradi;
2. Imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarga mobil vositalardan foydalangan holda o'qish imkoniyatini beradi;
3. Shaxsiy kompyuter va qog'ozli o'quv adabiyotiga ehtiyoj bo'lmaydi;
4. Zamonaviy simsiz texnologiyalar yordamida foydalanuvchilar orasida o'quv resurslar tarqalishi yengillashadi (WAP, GPRS, EDGE, Bluetooth, Wi-Fi);

¹ Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi

² Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi

5. Mobil o'qitishda multimediyali kontentdan foydalaniladi, ya'ni, axborotlar turli shakllarda ifoda etiladi: matnli, grafik, ovoqli.

Mobil o'qitishni joriy etishdan asosiy maqsad [2]:

- ✓ Ta'lim sifatini oshirish;
- ✓ Ta'limda AKT integratsiyasini joriy etish va qo'llab - quvvatlash;
- ✓ O'quv materialni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirish;
- ✓ Ta'lim jarayoniga shakllantiruvchi baholash (o'z xatolarini tahlil etish, o'z-o'zini baholash) va differensiallangan ta'lim texnologiyalarni joriy etish;
- ✓ Standartlashgan testlarni topshirish ko'rsatkichini o'sishi;
- ✓ Ta'lim oluvchilarda umri davomida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatimavjudligi;
- ✓ "Ta'lim muassasasi – oila – ta'lim muassasasi" aloqasini o'rnatilishiva uning rivojlanishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'quvchini ma'lumot bilan ishlashga, mustaqil ta'lim hamda axborotni o'zlashtirishga o'rgatish zamonaviy maktabning muhim vazifasidir. Bugungi kunda ta'limsifatini oshirishda mediateknologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Mobil texnologiya bu - uyali aloqa uchun ishlatiladigan texnologiyadir. So'nggi bir necha yil ichida mobil texnologiyalar tez fursatda rivojlandi. Oddiy mobil qurilma bugungi kunga kelib oddiygina mobil telefon, GPS-navigatsiya moslamasi, o'rnatilgan veb-brauzer va tezkor xabarlar mijoz va qo'lda o'yin konsoliga aylandi. Ko'pgina mutaxassislarning fikriga ko'ra, kompyuter texnologiyalarining kelajagi simsiz tarmoq orqali mobil kompyuterlarga bog'liqdir.

Planshetli kompyuterlar yordamida mobil hisoblash yanada ommalashmoqda. Asosan simsiz qurilmalarning simsiz texnologiyalariga (jumladan, noutbuklar, planshetlar, mobil telefonlar va boshqalar) axborot texnologiyalarini integratsiyalash uskunalari hisoblanadi.

Mobil texnologiyalar va Internet axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylandi.

Mobil ta'lim (M-learning) atamasi bundan 15 yillar oldin ingliz tilidagi pedagogik adabiyotlarda, hozirgi kunga kelib bizning mamlakatimizda ham bu atamadan keng foydalanila boshlandi. Mobil ta'lim mobil va portativ qurilmalardan foydalanib, o'qishni va ta'limni tashkillashtirish imkonini beradi

Rivojlangan mamlakatlar qatorida bizning davlatimizda ham mobil qurilma va telefon egalaring soni jadal tarzda ortib bormoqda. Ko'pgina ta'lim muassasalari ta'limning BYOD (Bring Your Own Device – O'z qurilmangni olib kel) uslubiga o'tmoqda [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Simposiumn multimediali prezentatsiyalar yordamida o'tkazish odat tusiga kirgan. Lekin odatiy taqdimot texnologiyalari bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga interaktiv deb nomlangan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda, bu esa taqdimotdan slaydshou ko'rinishida uzoqlashishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Закирова Ф. М. Подготовка будущих учителей к профессиональной деятельности в среде ИКТ // Информатика и образование. - 2017. - Н 10. - С. 101- 103.
2. Sulaymanova D.B. "Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5thgrade of schools" //Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-997080, volume 12 May 2021, 80-83 b.
3. Абдукадыров А., Тайлаков Н., Болтаев Б. и др. Основы информатики и вычислительной техники. 9 класс. Учебник. — Ташкент: Издательско- полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2016.
4. Йулдашева Г., Йўлдошева М. Использование информационных технологий в организациях //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 477-480.
5. Йўлдашева М.,Тешабаева О., Йўлдашева Г. Эффективное управление инвестиционной деятельностью информационно-коммуникационных технологий Узбекистана //Студенческий вестник. – 2021. – №. 3-4. – С. 11-13.
6. Yuldasheva G. I. Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish //youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 36-39.
7. Yuldasheva G., SHermatova H. Aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 372-376.

8. G. Yuldasheva, Kh. Shermatova. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8.
9. Yuldasheva G.I., Shermatova K.M. The use of adaptive technologies in the educational process //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-1. – С. 466-468.
10. Yuldasheva G.I. Advantages of credit-module system in the field of education //International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 14-16.
11. Teshabaeva O., Yuldasheva G., Yuldasheva M. Development of electronic business in the republic of Uzbekistan //Интернаука. – 2021. – №. 3-3. – С. 16-18.
12. Komilova Z.X., Nazirjonova F.S. The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 8, August 2020, 226-233p.
13. Komilova Z.X., Nazirjonova F.S.. The role of new information technologyies in education. Электронное научно-практическое периодическое международное издание. «Экономика и социум». №4(83), 2021, ст. ISSN 2225-1545. Россия. 167-170 стр.
14. Aldashev I., Komilova Z.X., Nazirjonova F.S. Theoretical and methodological basis of using multimedia technologies in teaching foreign languages. Электронное научно-практическое периодическое международное издание «Экономика и социум». №2(83), 2021, ст. ISSN 2225-1545. Россия. 49-51 стр.
15. Аскарова Ш.М. Инновационная технология в обучении естественных предметов. Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 1221-1225 стр.
16. Аскарова Ш.М. Современное состояние использования информационных ресурсов интернет в республике Узбекистан . International interdisciplinary research journal (GIIRJ). №31(9), 169-175 стр.